

H. Turdiyeva, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti Sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEK VA YAPON MADANIYATIDA OG'ZAKI NUTQDA IFODALANUVCHI XUSHMUOMALALIK — “POLITENESS”NING PRAGMATIK QIYOSIY TAHLILI

Qirg'inbarot urushning oldini oladigan qudratli kuch — muzokara va undan topib aytiladigan hayotbaxsh gaplar. Ona sayyoramizni balo-qazodan asraydigan kuch — yaxshi gap. Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda “So'z atomdan kuchli”.

Muloqotga kirishish, suhbatlashish inson hayotining muhim qismi bo'lib, aynan suhbatning qanday usulda olib borilishi muvaffaqiyatsizlikning ham, beqiyos muvaffaqiyatning ham asosiy sababchisi bo'lishi mumkin. Kommunikatsiya insonlar hayotida eng muhim rol o'ynaydigan faoliyatdir. Turli madaniyatlarga mansub kishilar muloqotini to'g'ri olib borish va xushmuomalalik qoidalarini to'g'ri tushungan holda, unga amal qilish sotsiologiyistikada hamon chuqurroq tadqiqotlarga muhtoj dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Bir millatda ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan tushuncha boshqa bir mamlakatda butunlay aksi, qo'pollik tushunchasini ham berishi mumkin.

Yapon olimi Usami Mayumi “Bir tildagi xushmuomalalikni ifodalovchi jumlar boshqa bir tilga to'gridan tog'ri tarjima qilinib bo'lmasligi mumkin. Lekin jamiyatdagi hurmat va qo'pollik tushunchalarini til o'rganuvchilar yaxshi ajratib olmasalar, bu bir xalq ikkinchi xalqni o'zi bilmagan holda haqoratlashiga, tushunmovchilikga va hatto konfliktga olib kelishini ko'p misollar bilan dalillash mumkin”, deb aytadi.

Xitoy tilshunosi Jiang Zhu ta'kidlashicha, “O'zaro xalqlararo muloqotda madaniyat tafovutlari nutq uslubida, nutqni qo'llash qonun-qoidalarida muhim rol o'ynaydi. Inson odatda o'zining madaniyati printsiplaridan kelib chiqib o'zini tutishi va o'z madaniyati qoidalariga asoslanib boshqa odamlarning xulq-atvorini baholaydi. Bu holat tilshunoslikda “pragmatic transfer” (“pragmatik ko'chish”) deb nomlanadi. Aynan shu pragmatik ko'chish oqibatida osongina muvaffaqiyatsizlikka yuz tutilishi va o'zaro madaniy muloqotda tushunmovchiliklarga duch kelinishi mumkin”.

Mazkur tadqiqot Yapon va o'zbek tillarida og'zaki xushmuomalalikni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, Yaponiya va O'zbekiston madaniyatidagi o'xshashlik va farqlar ustida izlanishlar olib borish vazifalarini o'z oldiga qo'ygan.

Bir necha yildirki, O'zbekistonda Yaponiyaning tili, adabiyoti, madaniyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib boriladi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Yaponiya kompaniyalari, loyihalari soni ortib bormoqda. Har yili Yaponiya

tomonidan O'zbekiston uchun taqdim etiladigan ta'lim grantlari, karyera imkoniyatlari, tadqiqot dasturlari va shu kabi loyihalar orqali hamyurtlarimiz Yaponiyadan bilim va tajribalar orttirib qaytmoqdalar. Shu bilan birga yaponiyaliklar ham o'zbek tili, madaniyatiga qiziqish bilan qarab kelmoqdalar. Yaponiya-O'zbekiston almashinuv dasturlarida O'zbekiston oliygohlarida tahsil oluvchi yapon talabalari, O'zbekiston bo'yicha tadqiqot ishlari bilan band yapon olimlari, O'zbekistonga 2 yil va undan oshiq muddatga ishlash uchun keladigan JICA (Japan International Cooperation Association — Yaponiya xalqaro hamkorlik assosatsiyasi) tashkiloti volontyorlari, turistlar ikki davlatning bir-biriga bo'layotgan qiziqishning yaqqol namunasidir.

Har ikki mamlakat til o'rganuvchilari har ikki davlat madaniyatidagi ijtimoiy muloqotning o'ziga xos taraflari, ya'ni xushmuomalalik qoidalarini anglashda qiyinchiliklarga va hatto qiziqarli yoki noqulay holatlarga duch kelishlari mumkin.

Ba'zi o'zbeklar yaponlar bilan muloqotga kirishganda Yaponiya ehtirom qoidalarini yaxshi angalamagan holda, muloqotda xushmuomalalik xatolariga yo'l qo'yib, suhbatdoshni hayron qoldirishlari va hatto hafa qilib qo'yishlari mumkin. O'zbeklar yaponlarga har ko'rganda Qalaysiz? / Ogenki desuka? (Ahvolingiz qanday?) deb so'rashishlari, "Turmushga chiqqanmisiz? / Oilalimisiz?", "Necha yoshsiz?", "Farzandlaringiz bormi?" kabi yapon madaniyatida hurmatsizlikni ifodalovchi shaxsiy savollar berishlari yoki aksincha, yaponlar o'zbeklar tomonidan keltirilgan maqtovni inkor qilaverishi, masalan, "Bugun ochilib ketibsiz", "Ingliz tilida juda yaxshi gapirar ekansiz", "Kiyimingiz juda chiroyli" kabi o'zbeklar tomonidan aytiladigan xushomad yoki maqtovlarga yaponlar "Yo'g'e, nimalar deyapsiz", "Unday holatning o'zi yo'q" kabi maqtovni inkor qiluvchi javoblar berishi har doim ham "juda kamtar ekan" degan tassavurni emas, "buncha o'zini pastga uradi", "mening fikrimni noto'g'riga chiqarmoqda" (O'ta kamtarlik — manmanlikdir) degan o'ylar bo'lishi har ikkala millat vakillari bilan o'tkazgan intervyular yordamida aniqlandi.

Har ikki mamlakatda ham xushmuomalalik insonlarning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, munosabatlar masofasi va shu kabi masalalarni hisobga olgan holda ifoda etiladi. Har ikki mamlakatdagi odamlar o'rtasida to'g'ri muomalaga kirishish printsiplari, tavsiyalari tadqiqot natijalari asosida aniqlandi.

Mazkur mavzu "Xushmuomalalik masalalari" jahon tilshunosligi, ayniqsa, Yapon, xitoy tilshunosligida 1920-yillardan boshlab, jahon tilshunosligida 1960 yillardan beri "hech eskirmaydigan" dolzarb mavzu va qizg'in baxs sifatida o'rganilib kelinmoqda. Jahon olimlari tomonidan shu kungacha amalga oshirilgan tadqiqot mualliflaridan kanadalik Erving Goffman (1967)⁸⁵ birinchi

⁸⁵Goffman, E. (1967). *International ritual: Essays in face-to-face behavior*. New York: Pantheon Books.

marta face (feys) tushunchasini ilgari suradi. Kaliforniyalik Robin Lakoff⁸⁶ (1973) Yevropada xushmuomalalik nazariyasini yaratib, xushmuomalalik — Politeness 3 ta tamoyildan iborat deb ta'kidlaydi: “Don't impose or Distance” (Bosim o'tkazmang va uzoq masofa saqlamang), “Give option or Deference” (Tanlash huquqini bering va ehtiromla ko'rsating) va “Make audience feel good or Camaraderie” (Suhbatdoshingizga do'stona muhitni his qilishiga imkon bering). Amerikalik Brown va britaniyalik Levinson (1987)⁸⁷ xushmuomalalikda ijobiy (ma'qullanishga ega bo'lgan ehtiyoj) va salbiy xushmuomalalik (bosim o'tkazilmaslikga ega bo'lgan ehtiyoj) masalalari nazariyasini yaratdilar. Shuningdek, Fraser⁸⁸ (1990) (“Perspective on Politeness”, ya'ni Politeness istiqbollari), yapon tilshunoslaridan Tokieda (1941) (Kokugo gaku genron — Yapon tilshunosligida nutq), Tsujimura⁸⁹ (1991) (Keigono Youhou — Ehtiromlarning ifodalanishi); Yamaguchi (2004) (Nihongo no Ronri: Kotobani arawareru shisou — yapon logikasi: tilda aks etgan g'oyalar); Ono Masaki⁹⁰ kabi olimlar tadqiqotlari ham mazkur sohada salmoqli natijalarni ko'rsatadi. O'zbek tilshunoslaridan N⁹¹. Dadaboyeva “Tilda inkor kategoriyasining aks etishi”; Sh. M. Iskandarova “O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari”, Mo'minova Aziza (2015) “O'zbek nutq etiketi: “Siz” va “Sen”ning ifodalanishi kabi tadqiqotlar mavzuning kichik bir sohalarini o'rgangan bo'lib, o'zbek tilshunosligida mazkur mavzu batafsil izlanishlar talab etadi.

Bizning O'zbekistonda va Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotimiz og'zaki nutq xushmuomaligi tahliliga qaratilgandir. O'zbek va yapon tili vakillari bilan suhbatlashish, ularning o'zaro suhbatini kuzatish, so'rovnomalar o'tkazish natijasida suhbatni o'ziga qamrovchi 5 ta holatda har ikki mamlakatda o'zaro madaniy anglashilmovchiliklar bo'lganini aniqladik.

1) Mehmondorchilik / Homestay; 2) Sotuvchi va xaridor suhbat; 3) Transportdagi muloqot; 4) Oiladagi muloqot; 5) O'qituvchi va talaba muloqoti.

Tadqiqot ikki xil ko'rinishda, kuzatuv va so'rovnoma asosida o'tkazildi.

⁸⁶https://www.academia.edu/9669467/ROBIN_LAKOFF_S_POLITENESS_PRINCIPLES Virna Margetan English Language Teaching Department Grace, Kartika Ratih Faculty of Language and Literature, Permata Dipaning Ratri Satya Wacana Christian University (2014)

⁸⁷Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge, MA: Cambridge University Press.

⁸⁸Fraser (1990) (“Perspective on Politeness.”) *Journal of Pragmatics* 1, 2190-236

⁸⁹Tujimura, T. (1977). Nihongo no kēgo no kōzō to tokushoku. In S. Ōno & T. Shibata (Eds.), *Iwanami Kōza Nihongo 4: Kēgo* (pp. 45-94). Tōkyō: Iwanami Shoten.

小野正樹. 日本語教育原論. 日本語の敬語の変化. 筑波大学. 2016年12月14日

⁹¹Dadaboyeva N. “Tilda inkor kategoriyasining aks etishi”, - Andijon: 2012. 18 b.

Kuzatuv o'zbek va yapon tilidagi kinolar: ごくせん4, 花より団子, "Osmondagi bolalar", "Firibgar", "Sabo", "Kirakash": jonli muloqotlarda ishtirok etish hamda kuzatish asosida amalga oshirildi.

So'rovnoma 120 nafar ishtirokchi 60 ta o'zbekistonliklar va 60 ta yaponiyaliklar qatnashdilar. Savollar o'zbeklarga o'zbek tilida, yaponlarga yapon tilida taqdim etildi. So'rovnoma internetda google.form yordamida va yuzma-yuz tarzda o'tkazildi. So'rovnoma 5 qismdan, 41 ta savoldan iboratdir:

- 1) Mehmondorchilik / Homestay (13 ta savol);
- 2) Sotuvchi va xaridor suhbat (7);
- 3) Transportdagi muloqot (12);
- 4) Oiladagi muloqot (5);
- 5) O'qituvchi va talaba muloqoti (4).


So'rovnoma tuzishda SHIH Pei Chun⁹², Sugito Seiju, Ozaki Yoshimitsu⁹³ ning so'rovnoma o'tkazish metodlaridan foydalandi.

Ishtirokchilar profili: 60 nafar yaponiyaliklar: 24 nafar erkaklar — 40%, 36 nafar ayollar — 60%; 20 dan 73 yoshgacha; Kanto doirasida yashovchilar; 60 nafar o'zbekistonliklar: 29 nafar erkaklar — 48, 3%, 31 nafar ayollar — 51, 7%; 18 dan 55 yoshgacha; O'zbekiston hududida yashovchilar.

Tadqiqot so'rovnomasidan namuna:

Uyingizda mehmon bor. U dasturxonigizdagi taomlardan uncha tanovul qilmayapti. Bu holda mehmonga nima deysiz?

Yaponlar va o'zbeklar javobi:



⁹² SHIH Pei Chun. A Comparison of Politeness Strategies in Japanese and Cantonese. (The University of Birmingham March 2009). 言語行動における配慮の諸相 (Various aspects of consideration in verbal behavior. 国立国語研究所 (National Institute for Japanese Language) 2006.

“Olib o'tiring” deb 5–10 marta aytaman” degan javob o'zbeklarda 48,3% va yaponlarda 0% ni tashkil etdi. Olib o'tiring” deb 1–2 marta aytaman” degan javob o'zbeklarda 21,7 % va yaponlarda 73,3%ni ko'rsatdi. “Hech narsa demayman” javobi o'zbeklarda umuman kuzatilmadi, yaponlarda esa 11,7% ni tashkil etdi. “Yemasangiz hafa bo'laman” javobini 23,3% nafar o'zbek ishtirokchilar tanlaganlar, yaponlarda bu javob tanlovi kuzatilmagan.

Yaponiyaliklar mehmonga o'z madaniyatlaridagi “bosim o'zkazmaslik” prinsipiga amal qilib, 1–2 marta “oling, yeng” deb aytsalar, o'zbeklarda bu ibora qancha ko'p aytilsa, shunchalik hurmatni (Poitenessni) ifodalashini aniqladik. Yaponiyada taklif qilingan taomni ohirigacha yemaslik, tatib ko'rmaslik hurmatsizlik sanalgani bois, O'zbekistonga kelgan yaponiyaliklar o'zbek madaniyati emas, o'z madaniyatlariga amal qilib, o'zlarini majburlab tanovul qilganlari, bosim ostida qolgandek o'zlarini noqulay his qilganlari ochiq suhbatlar yordamida aniqlandi. Aksincha, Yaponiyaga borgan o'zbeklar o'zbek madaniyati tushunchalaridan kelib chiqib, “Yaponlarni uncha mehmondo'st emas” degan noto'g'ri tushunchaga borganlarini ham aniqladik.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har ikki mamlakatda ham o'ziga xos xushmuomalalik, muloyimlik qoidalarini mavjud bo'lib, o'zaro keskin farq qiluvchi yoki o'xshash tomonlarga ega.

Mehmondorchilikda yaponlardan mulozamat kutib o'tirilmaligi, o'zbeklarning mulozamatini to'g'ridan to'g'ri tushunishga yo'l qo'yilmaligi maqsadga muvofiqdir. Bunda yaponlarda negativ feys va o'zbeklarda pozetiv feys namoyon bo'ladi.

Transportda (ayniqsa taksida) haydovchilar yo'lovchilar bilan suhbatlashishining sababi do'stona muhitda uzoqni yaqin qiluvchi suhbat bilan vaqtni o'tkazish bo'lsa, yaponiyaliklar uchun haydovchilar tomondan savollar berilishi inson shaxsiy hayotiga aralashish, behurmatlik tushunchalari ifodalaydi. Yaponlarda negativ feys va o'zbeklarda pozetiv feys kuzatiladi.

Sotuvchi va xaridor o'rtasida yaponiyada doim bir xil shablon birikmalar ifodalansa, o'zbeklarda muloqot erkin bo'ladi. Savdolashish Yaponiyada juda ham kam foizni (2%) tashkil etsa, O'zbekiston bozorlarida xarid savdolashuvsiz o'tmaydi. Bunda ham yaponlarda negativ feys va o'zbeklarda pozetiv feysni kuzatamiz.

Oila suhbatidagi hurmat qoidalarida, yaponiyaliklar yoshidan qat'iy nazar o'ziga yaqin insonlarni sansirashini kuzatgan bo'lsak, O'zbekistonda buning aksini, yoshiga qarab, oiladagi o'rniga (masalan: xotin eriga) hurmat bilan murojaat etish muhimligini ko'ramiz.

Ustoz talaba munosabatlaridagi muloqot o'zbeklarda bir xil darajadagi hurmat shaklida ifodalanib, yaponlarda ustoz muloqotning past darajadagi hurmat darajasida, talabalar yuqori darajadagi hurmat shaklini qo'llaydilar.

Yaponlarda o'ta kamtarlik, bosim o'tkazmaslikva bosimda qolmaslik, hammaning hayoti o'ziga tegishli bo'lgani uchun tashqi aralashuvlarni qabul qilmaslik tushunchalari yetakchilik qilib, ko'proq negativ xushmuomalalikni ifoda etadilar. O'zbeklar muloqotida pozetiv xushmuomalalik yetakchilik qilgan holda, suhbatda hazilomuz mavzular, tabiiy va soxta mulozamatning ko'pligi, do'stona muhit yaratish maqsadida suhbatdoshni suhbatga chorlash holatlari tadqiqot kuzatuvlarida va so'rovnoma natijalariga ko'ra aniqlandi.

